



TADBIRKORLIK SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI VA ASOSLARI

Ravshanov Surat Botir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri

ravshanovsurat03@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10171602>

ARTICLE INFO

Received: 16th November 2023

Accepted: 20th November 2023

Online: 21th November 2023

KEY WORDS

Ma'muriy huquqbuzarlik, qonun, harakatsizlik, javobgarlik, qasddan, ehtiyotsizlik, g'ayrihuquqiy.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yuridik fanning tadbirkorlik sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik tushunchasi va asoslari haqida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari bu maqolada tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan qonun buzilishlari holatlari uchun qay tartibda javobgarlikka tortilishi, qancha miqdorda jarimaga tortilishi haqida atroflicha ma'lumot berib o'tilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli, qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi¹.

Ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilishi ma'muriy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Tadbirkorlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik deganda, yuridik va jismoniy shaxslarning qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan

qoidalarni buzishga qaratilgan harakat yoki harakatsizliklari tushuniladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 11-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi².

Ushbu Kodeksning 12-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir

¹ B.Ibratov tadbirkorlik huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT-"MOLIYA"-2001

² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Toshkent.: Adolat, 2001 y.



etilgan deb hisoblanadi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan tadbirkorlar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan tadbirkorlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalari to'g'risidagi Nizomida nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Mansabdor shaxs deb, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan, unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat o'tkazish yoki moddiy boyliklar javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan kishilarga aytiladi³.

Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 18-20 va 21-moddalarida ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish yo'llari qayd etilgan. Xususan, 18-moddada ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda yoki ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida, ya'ni shaxsni yoki mudofaalanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi⁴.

Yoki bo'lmasa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda yoxud boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti, bu xavfni usha holatda boshqacha choralar bilan bartaraf etib bo'lmasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

Shuningdek, g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo'lgan shaxs, ya'ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakati yoki harakatsizligining ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas⁵.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 21-moddasiga asosan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda, shu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin⁶.

³ Rustambaev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. OTM uchun darslik. – T.: «TDYu» nashriyoti, 2010

⁴ Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. lex.uz.

⁵ Rustambaev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. OTM uchun darslik. – T.: «TDYu» nashriyoti, 2010

⁶ Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. lex.uz.



Tadbirkorlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibi to'rtta elementdan tashkil topadi. Agarda ana shu elementlardan birontasi ishtirok etmasa, bunday g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

Bular: obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon. Tadbirkorlik sohasidagi huquqbuzarlikning obyektini uch turga: umumiy, turdosh va maxsus obyektlarga bo'linadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ma'muriy huquqbuzarlikning umumiy obyektini hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida nazarda tutilgan shaxs, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, mulk, davlat va jamoat tartibi, tabiiy muhit ma'muriy huquqbuzarlikning turdosh obyektlari sanaladi.

Shuningdek, har qaysi muayyan ma'muriy huquqbuzarlik bevosita (maxsus) o'zining obyektiga egadir. Masalan, xo'jalik yurituvchi boshqa subyektning mol-mulki va tadbirkorlik obro'siga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish; tovar belgisidan, tovarning firma nomidan yoki markasidan o'zboshimchalik bilan foydalanish, shuningdek xo'jalik yurituvchi boshqa subyekt tovarining shaklini, tashqi bezagini aynan ko'chirib olish; ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, tadbirkorlik, savdo va boshqa sohaga oid maxfiy axborotni egasining roziligisiz olish, undan foydalanish va uni oshkor qilish; tovarlarning xususiyati, ularni tayyorlash usuli va o'rni, iste'mol xossalari va sifati xususida iste'molchilarni chalg'itish; xo'jalik yurituvchi boshqa subyektlarni bozorga kirishini cheklovchi xatti-harakatlar sodir etish-tadbirkorlikda g'irrom raqobatning bevosita (maxsus) obyektidir.

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlikdir. Masalan, hokimiyat organidagi mansabdor shaxsning tadbirkorlik bilan shug'ullanish maqsadida tuziladigan korxonalar, shirkat yoki xususiy firmani ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi yoxud fuqaroning qonun bilan taqiqlangan yoki qonunga xilof bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi singari g'ayriqonuniy harakat va harakatsizliklar ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni hisoblanadi.

Tadbirkorlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning subyektini umumiy, maxsus va alohida singari turlarga bo'linadi. 16 yoshga to'lgan fuqarolar (jismoniy shaxslar) ma'muriy huquqbuzarlikning umumiy subyektlari, mansabdor shaxslar, xorijiy davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ma'muriy huquqbuzarlikning maxsus subyektlari, shuningdek harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlarining xodimlari ma'muriy huquqbuzarlikning alohida subyektlari bo'lib hisoblanadi⁷.

Tadbirkorlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni huquqbuzarning aybi, maqsadi, ruhiy holati, qasd yoki ehtiyotsizligi kabilarni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining va hokimlarning qaror va farmoyishlari bilan belgilanadi.

Tadbirkorlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik harakatlari uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

1. Jarima solish;

⁷ Kabulov R., Otajonov A.. "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar": O'quv qo'llanma / – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.



2. Musodara qilish.

Jarima solish tadbirkorlik sohasida sodir etilgan barcha huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi.

Jarima o'z mohiyatiga ko'ra ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir.

Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun bunday huquqbuzarlik aniqlangan vaqtda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori eng kam ish haqining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa - undan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng ko'p miqdori eng kam ish haqining besh baravaridan, mansabdor shaxsga esa o'n baravaridan oshmasligi lozim. Qonunlarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba'zi huquqbuzarliklar uchun fuqarolarga - eng kam ish haqining o'n baravarigacha va mansabdor shaxslarga - o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin⁸.

References:

1. B.Ibratov tadbirkorlik huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT-"MOLIYA"-2001.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Toshkent.: Adolat, 2001 y.
3. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. lex.uz.
4. Rustambaev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. OTM uchun darslik. - T.: «TDYuI» nashriyoti, 2010
5. Kabulov R., Otajonov A. "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar": O'quv qo'llanma / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.

⁸ Tadbirkorlik huquqi (maxsus qism) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT 2002.